INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.39/30.11.2020. Yu/S. 128.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

ASLONOV NAVRO‘ZBEK RUSTAMOVICH

INSONNING AXBOROT OLISH HUQUQI: XALQARO VA MILLIY TAJRIBA

12.00.13 – Inson huquqlari

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 342.7:001.102(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Aslonov Navro‘zbek Rustamovich
Insonning axborot olish huquqi: xalqaro va milliy tajriba.....3

Aslonov Navruzbek Rustamovich
The human right to information: international and national experience…….....…25

Аслонов Наврузбек Рустамович
Право человека на получение информации: международный и национальный опыт.....45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ..... 51

INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.39/30.11.2020. Yu/S. 128.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

ASLONOV NAVRO‘ZBEK RUSTAMOVICH

INSONNING AXBOROT OLISH HUQUQI: XALQARO VA MILLIY TAJRIBA

12.00.13 – Inson huquqlari

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi B2023.1.PhD/Yu1001raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nhrc.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ochilov O‘tkir Sayfullayevich** yuridik fanlar doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Turg‘unov Ilhom Turg‘unovich** yuridik fanlar doktori, dotsent
	Toshev Boboqul Norqobilovich yuridik fanlar doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.39/30.11.2020. Yu/S. 128.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 23-dekabr kuni soat 9:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100029, Toshkent shahar, Islom Karimov ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (99871) 239-40-23; E-mail: info@nhrc.uz).

Dissertatsiya bilan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (10-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100029, Toshkent shahar, Islom Karimov ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (99871) 239-40-23).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” dekabr, __raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A. Tillabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

G‘.A. Alimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi v.v.b., yuridik fanlar doktori, dotsent

G. Yuldasheva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo axborot jamiyati sharoitida axborotga ega bo‘lish insonning faqat kundalik ehtiyoji bo‘lib qolmasdan, balki uning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishining muhim negizidir. Bugungi globallashuv sharoitida axborotning qiymati moddiy resurslar qatorida strategik boylik sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, insonning axborot olish huquqi demokratik jamiyatlar taraqqiyotining poydevori, fuqarolik jamiyati institutlarining samarali faoliyat yuritish kafolati sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xalqaro tashkilotlar taqdim etgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi o‘n yil ichida dunyoda 5,6 milliarddan ortiq inson axborot olish huquqlarining pasayishini boshidan kechirmoqda. Jumladan, 77 ta davlatda axborot olish bilan bog‘liq xalqaro reyting ko‘rsatkichlari pasaygan bo‘lsa, atigi 35 ta davlatdagina ushbu ko‘rsatkichlarda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan[1].

Jahonda axborot olish huquqi xalqaro hamjamiyat tomonidan insonning asosiy va ajralmas huquqlaridan biri sifatida tan olinib, u demokratik jamiyatning siyosiy, huquqiy va ijtimoiy tizimini mustahkamlovchi fundamental huquq sifatida e’tirof etildi. Axborot olish huquqining me’yoriy-huquqiy asoslari Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakti hamda Yevropa va boshqa mintaqaviy tashkilotlarning konvensiyalarida mustahkamlangan bo‘lib, ushbu hujjatlar davlatlarga mazkur huquqni ta’minlash majburiyatini yuklaydi. So‘nggi yillarda BMT, YuNESKO va YeXHTlari axborotdan erkin foydalanish bo‘yicha rezolyutsiya va deklaratsiyalar qabul qilmoqda. Axborot olish huquqi esa barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlab, ijtimoiy va boshqaruv muammolariga muqobil yechimlar taqdim etadi. BMTning Global boshqaruv komissiyasi xulosalariga ko‘ra, “2030 Barqaror rivojlanish kun tartibi maqsadlari”ga erishishda, ayniqsa 16-maqsad – “tinchlik, adolat va samarali institutlar” doirasida axborot olish huquqini ta’minlash, davlat faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini oshirish mintaqaviy va submintaqaviy darajalarda barqaror taraqqiyot uchun muhim omil hisoblanadi[2].

O‘zbekistonda 2022 – 2024 - yillar davomida davlat organlariga axborot so‘rab yuborilgan murojaatlar soni 1,5 barobarga oshgan. Ushbu murojaatlarning 70 foizi ijobiy hal etilgan bo‘lsa, 20 foizi javobsiz qolgan yoki asossiz rad etilgan. Qolgan murojaatlar bo‘yicha esa jarayonlarning kechiktirilishi yoki texnik sabablarga ko‘ra “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun hamda boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan axborotni taqdim etish majburiyatini buzish holatlari aniqlangan[3]. Statistik ma’lumotga ko‘ra, bu holat insonlarning axborot olish huquqdan faol foydalanilayotganini ko‘rsatsa-da, tizimda

---

[1] ARTICLE 19. Global Expression Report 2025. URL:// https://www.globalexpressionreport.org/?twclid=254j3huhfd5ksnzfnf60kcz21j/. (Murojaat qilingan sana: 20.08.2025)

[2] Resolution A/RES/70/1 adopted by the General Assembly on 25 September 2015: point 21; UN sustainable development goals Konowledge platform. URL:// https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/generalassembly/docs/globalcompact/A_RES_70_1_E.pdf. (Murojaat qilingan san: 13.06.2024)

[3] Vibrant Information Barometr. URL: //https://www.irex.org/sites/default/files/VIBE_2024_Uzbekistan.pdf?utm. (Murojaat qilingan sana: 14.05.2024)

hali ham huquqiy va tashkiliy muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida axborot erkinligi, so‘z erkinligi hamda axborot olish huquqini mustahkamlashga qaratilgan qator qonun hujjatlari qabul qilinmoqda. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da vakolatli organlar tomonidan Axborot kodeksi loyihasi ishlab chiqish vazifasi yuklatildi[4]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi”ning 83 hamda 96-bandlarida axborot olish huquqini yanada kuchaytirish vazifasi belgilangan[5]. Shuni alohida ta’kidlash joizki, axborot olish huquqini huquqiy jihatdan rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasi va ilg‘or amaliyotidan foydalanish ushbu sohaning takomillashuvi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi (2017), “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi (2017), “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi (2007), “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi (2019), “Davlat sirlari to‘g‘risida”gi (2024) Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 27-iyundagi “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishing ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va huquqiy demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda yuridik fanlar doirasida Insonning axborot olish huquqi maxsus monografik tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Shu bilan birga, tadqiqot mavzusining u yoki bu jihatlari A.Saidov, M.Tillabayev, O.Oqyulov, M.Mamasiddiqov, N.Nugmanov, A.Xudoyberdiyev, B.Xodjayev, I.Rustambekov, J.Abdullayev, A.Yo‘ldoshev, A.Amanov, A.Gulimov, M.Axmedshayeva, I.Kudrayavsev, S.Sadikov, X.Mamatov, P.Rustamov, G‘.Mirzayev, A.Muhammadiyev, J.Qudratillayev, J.Ilhombekov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo mamlakatlarning I.Bachilo, A.Shvets, R.Kostenko, A.Tulikov, O.Petrovskaya, I.Alekseyeva, O.Sherbina, A.Sokolov, L.Levkina, V.Politanskiy, L.Tereshchenko, N.Korchenkova, B.Dosaliyeva, K.Amirjan, N.Mamedov, R.Mahmudov, T.Elvira, D.Koreenko,

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-iyundagi PF-6012-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi”. URL: // https://lex.uz/docs/-4872355. (Murojaat qilingan sana: 27.11.2023)

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. URL: // https://lex.uz/uz/docs/-6600413. (Murojaat qilingan sana: 27.11.2023)

T.Chumachenko, G.Kubenov, M.Makovey, E.Chefranova, N.Davydova, N.Kolobayeva, A.Minbalayev, Y.Abbasova, E.Talapina, L.Akopovlar va boshqa olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorijiy mamlakatlarda esa R.Xartli, K.Shenon, Norbertio Bobbio, J.Vest, T.Bergstrom, David Banisar, Toby Mendel, Kay Mathiesen, R.Kalland, M.Frankel, M.McDonagh, Ding Choo Ming, B.Guvdin, Seong Nak-in, L.Neuman, Ralf Neyder, Naim Ulla Xon, Sana Akhter, S.Jozef, J.Nye, Chen Yongxi, Jo Su-yong, Varida Ambark, P.Kanavaggio, S.Geiger, Ahmet Burak Haydari, S.Keunen, S.Garsee, David Pozen, A.Roberts, D.Berliner, B.Bagozzi, J.Relly, L.Repeta, K.Youm, I.Li, Park A, S.Mutula, J.Vamukoya, P.Svard, R.Pinto, A.Velkavrh, J.Kukier, J.Barata, P.Reang, F.Edel, M.Kamba, P.Bayne, M.Riegner, J.Posetti, S.Iretonlar, S.Devi, M.Dalimunte, F.Purvaningyas va boshqa olimlar tomonidan insonning axborot olish bilan bog‘liq masalalar talqin qilingan.

Biroq yuqorida keltirilgan tadqiqotlar tahlili insonning axborot olish huquqining nazariy va amaliy muammolari O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi, shuningdek ushbu sohaga oid xalqaro hujjatlar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida kompleks tadqiqot ishi sifatida alohida tadqiqot obyekti bo‘lmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi insonning axborot olish huquqini ta’minlashga doir xalqaro tajriba va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligini tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

insoning axborot olish huquqi tushunchasi va uning mazmun mohiyatini o‘rganish;

inson huquq va erkinliklari tizimida axborot olish huquqining tutgan o‘rni va rolini o‘rganish;

inson huquqlarini ta’minlanishida axborot olish huquqini ahamiyatini yoritib berish;

raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt rivojlanish davrida axborot olish huquqining huquqiy evolyutsiyasini yoritib berish;

axborot olish huquqiga taalluqli norma ijodkorligi jarayonini tahlil qilish va uni takomillashtirish masalalarini ko‘rib chiqish;

axborot olish huquqiga doir xalqaro shartnomaviy-huquqiy baza, chet davlatlar milliy qonunchilik tajribasi va O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilikni tizimli tahlil qilish;

insonning axborot olish jarayonida aniqlangan muammolarni bartaraf etishning samarali yo‘nalishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekiston Respublikasi va xalqaro miqyosda insonning axborot olish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi sanaladi.

Tadqiqot predmeti O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek xorijiy mamlakatlar qonunlari, xalqaro huquqiy hujjatlarda insonning axborot olish jarayonida yuzaga kelayotgan amaliyotdagi mavjud muammolar, axborot olishga oid statistik ma’lumotlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, normativ va funksional qiyoslash, bilishning formal-mantiqiy, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, statistik ma’lumotlar tahlili, ijtimoiy so‘rovnoma hamda formal-yuridik kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘z faoliyati sohasiga doir axborotni davlat organlaridan, fuqarolik jamiyati institutlaridan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olishga va o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni tarqatish zarurligini huquqiy jihatdan belgilash orqali axborot erkinligining amaliy mexanizmlarini mustahkamlash zarurati asoslab berilgan;

telefonlar va boshqa foydalanuvchi qurilmalari orqali olib borilayotgan so‘zlashuvlarni eshitish, telekommunikatsiya tarmoqlari orqali uzatiladigan xabarlar bilan tanishish va ularning sir saqlanishini cheklashga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda hamda sud qaroriga asosan yo‘l qo‘yilishi mumkinligi huquqiy davlat tamoyillariga muvofiq asoslantirilgan;

axborot olish huquqini to‘laqonli ta’minlash uchun insonlarning ishonchli axborotlarni olishlari, dezinformatsiya, misinformatsiya hamda malinformatsiyani farqlashlari uchun axborot tizimida “axborot eksperti” tushunchasiga ta’rif ishlab chiqildi;

axborot olish erkinligining asosiy prinsiplari qonuniylik, ochiqlik, oshkoralik, axborotdan erkin foydalanish hamda haqqoniylik tamoyillariga asoslanishi lozimligi nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan;

murojaat etuvchining huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lmagan axborotni taqdim etganlik uchun qonunchilikda belgilangan tartibda haq olinishi mumkinligi huquqiy asoslantirilgan;

Ombudsman o‘z faoliyati to‘g‘risidagi tegishli axborotni o‘zining rasmiy veb-saytiga joylashtirib va yangilab turishi, Ombudsmanning faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzani hamda boshqa materiallarni ommaviy axborot vositalarida e’lon qilib borishi shaffoflik tamoyilini mustahkamlash nuqtayi nazaridan asoslab berilgan;

jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish jadvallari, qabulni o‘tkazish vaqti, joyi hamda qabulga oldindan yozilish to‘g‘risidagi axborot, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish tartibi Ombudsmanning rasmiy veb-saytida e’lon qilinishi, uning ma’muriy binosida hamma kirishi mumkin bo‘lgan joylardagi stendlarga yoki boshqa texnik vositalarga joylashtirish orqali manfaatdor shaxslar e’tiboriga yetkazilishi kerakligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Axborot”, “Axborotni proaktiv oshkor qilish”, “axborot foydalanuvchisi”, “Axborot eksperti”, “Axborotni olishni amalga oshiruvchi subyekt” tushunchalariga nisbatan mualliflik ta’riflari ishlab chiqildi;

Axborot olishdagi mavjud va o‘z yechimini topishi kerak bo‘lgan masalalar xalqaro tajribani inobatga olgan holda qabul qilinadigan Axborot kodeksi bilan tartibga solinishi lozimligi asoslab berildi;

Axborot kodeksini qabul qilinishi natijasida insonning axborot olish jarayonida vujudga keladigan munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish tartibi, bunday majburiyatlarning bajarilishi boshlanishi sanasi, shuningdek ularning bajarilganini hujjatlar bilan tasdiqlash masalalari o‘z yechimini topishi izohlab berildi;

Insonning axborot olish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga yo‘naltirilgan qonunchilik bazasi tahlil qilinib, tegishli huquqiy asoslarning shakllanish bosqichlari va rivojlanish jarayonini amaliyotga joriy etish zarurligi ilmiy asoslab berildi;

Axborot erkin izlash, olish va tarqatish huquqining samarali amalga oshirilishini ta’minlash, shuningdek, sudgacha bo‘lgan muqobil himoya vositalari va vositachilik (mediatsiya) mexanizmlarini rivojlantirish maqsadida “Axborot erkinligi bo‘yicha vakil” (Axborot komissari) institutini joriy etish zarurligi ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi asosida mamlakatimiz uchun ham dolzarb ekanligi asoslab berildi;

Axborot olish huquqini yanada to‘liq ta’minlash, noqonuniy rad etish, javob berish muddati buzilishi, ma’lumotlarni yashirish yoki soxta ma’lumot berish kabi barcha huquqbuzarliklarni qamrab olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 44-moddasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalari xalqaro va milliy huquq normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyotiga asoslangan. Bundan tashqari, sotsiologik so‘rovnoma (*660 dan ortiq respondent*), statistik ma’lumotlarni umumlashtirilgan hamda tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, ular yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli davlat idoralari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida olingan ilmiy xulosalar ilmiy-tadqiqot faoliyatida, shuningdek, “Inson huquqlari”, “Axborot huquqi”, “Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq”, “Xalqaro ommaviy huquq”, “Konstitutsiyaviy huquq” kabi o‘quv kurslarini ilmiy-nazariy boyitishda, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalarni tayyorlashda hamda yurisprudensiya yo‘nalishidagi ilmiy metodologik yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ushbu natijalar milliy qonunchiligimiz amaldagi normalarining insonning axborot olish bilan bog‘liq bo‘lgan bandlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritishda, normativ-huquqiy hujjatlarni hamda huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha ilgari surilgan taklif va tavsiyalarni o‘zida aks ettiradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda insonning axborot olish huquqini ta’minlashni takomillashtirish asoslariga doir olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

o‘z faoliyati sohasiga doir axborotni davlat organlaridan, fuqarolik jamiyati institutlaridan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olishga va o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni tarqatish kerakligi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi to‘g‘risidagi nizomning 3-bobi 11-bandi ikkinchi xatboshisida o‘z ifodasini topgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 2024-yil 15-noyabrdagi 51-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklifning amalga oshirilishi fuqarolik jamiyati institutlarining mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytirish hamda insonlarning ushbu institutlar faoliyatidan xabardorlik darajasini oshirishga xizmat qilgan;

telefonlar va boshqa foydalanuvchi qurilmalari orqali olib borilayotgan so‘zlashuvlarni eshitishga, telekommunikatsiyalar tarmoqlari orqali uzatiladigan xabarlar bilan tanishishga, ular to‘g‘risida axborot olishga, shuningdek ularning sir saqlanishini boshqacha usulda cheklashga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda hamda sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi taklifidan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-dekabrdagi “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-1015-son Qonunning 20-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 2024-yil 15-noyabrdagi 51-sonli dalolatnomasi*). Ushbu taklif insonlarning shaxsiy hayoti daxlsizligini, telekommunikatsiya orqali almashiniladigan xabarlarning maxfiyligini hamda ularning huquqiy kafolatlar asosida himoya qilinishini ta’minlashga xizmat qilgan;

axborot eksperti – xulosa berish uchun zarur fan, texnika, san’at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan har qanday jismoniy shaxs, tushunchasiga berilgan taklif O‘zbekiston Respublikasi Axborot kodeksi loyihasiga inobatga olingan *(O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2025-yil 25-martdagi № 04-02-16-2121-son dalolatnomasi)*. Taklif insonning axborot olishida aniq, ishonchli va ekspert tomonidan ekspertizadan o‘tgan axborotni olishni ta’minlashga xizmat qiladi;

axborot olish erkinligining asosiy prinsiplari qonuniylik, ochiqlik, oshkoralik, axborotdan erkin foydalanish va haqqoniylikka asoslanishi kerakligi Axborot kodeksi loyihasining 6-moddasida o‘z aksini topgan *(O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2025-yil 25-martdagi № 04-02-16-2121-son dalolatnomasi)*. Ushbu taklif axborot olish erkinligining asosiy prinsipi bo‘lgan qonuniylikni ifodalaydi. Ya’ni, axborotdan foydalanish va uni tarqatish faqat qonun asosida amalga oshirilishi, axborot olishni asossiz cheklashga yo‘l qo‘yilmasligini ta’milashga xizmat qiladi;

murojaat etuvchining huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lmagan axborotni taqdim etganlik uchun qonunchilikda belgilangan tartibda haq olinishi

mumkinligi Axborot kodeksi loyihasining 8-moddasida o‘z aksini topdi *(O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2025-yil 25-martdagi № 04-02-16-2121-son dalolatnomasi)*. Mazkur taklif axborot olish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda haq undirilishi byudjet mablag‘laridan oqilona va samarali foydalanishga xizmat qiladi;

Ombudsman o‘z faoliyati to‘g‘risidagi tegishli axborotni o‘zining rasmiy veb-saytiga joylashtirib va yangilab turishi, Ombudsmanning faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzani hamda boshqa materiallarni ommaviy axborot vositalarida e’lon qilib borishi kerakligi haqidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-dekabrdagi O‘RQ-1002-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”gi Qonuni 17-moddasining ikkinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2025-yil 20-avgustdagi №3/dn-167-son dalolatnomasi*). Taklif insonlarning Ombudsman faoliyati to‘g‘risida muntazam va to‘liq axborot olish huquqini ta’minlash, shuningdek ushbu institutning ochiqligi va jamoatchilik oldidagi hisobdorligini mustahkamlashga xizmat qilgan;

jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish jadvallari, qabulni o‘tkazish vaqti, joyi hamda qabulga oldindan yozilish to‘g‘risidagi axborot, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish tartibi Ombudsmanning rasmiy veb-saytida e’lon qilinishi, uning ma’muriy binosida hamma kirishi mumkin bo‘lgan joylardagi stendlarga yoki boshqa texnik vositalarga joylashtirish orqali manfaatdor shaxslar e’tiboriga yetkazilishi kerakligi haqidagi taklifdan “O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-dekabrdagi O‘RQ-1002-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”gi Qonuni 19-moddasining oltinchi qismini shakllantirishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2025-yil 20-avgustdagi №3/dn-167-son dalolatnomasi*). Ushbu taklif jismoniy va yuridik shaxslarning Ombudsmanga murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning qabul jarayoniga oid axborotdan xabardorligini ta’minlash hamda ochiqlik va shaffoflikni mustahkamlashga xizmat qilgan;

axborot tizimiga kiritilgan ma’lumotlarning to‘liqligi va haqqoniyligini o‘rganish zarur bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlarni respublika ijro etuvchi hokimyat organlaridan bepul asosda so‘rash va olish (davlat, harbiy va xizmat sirini tashkil etuvchi maxfiy ma’lumotlar bundan mustasno), o‘rganish natijalari bo‘yicha ma’lumotlar tuzish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika ijro etuvchi hokimyat organlari funksiyalari ochiq reyestrini yuritish to‘g‘risida”gi Nizomning 19-bandi uchinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2025-yil 31-oktabrdagi №13/12-6/23508-son dalolatnomasi*). Mazkur taklif respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, shuningdek, axborot tizimlarida mavjud ma’lumotlarning ishonchliligi va haqqoniyligini kafolatlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarida sinovdan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan OAK tomonidan ro‘yxatga olingan milliy jurnallarda 6 ta hamda xorijiy jurnallarda 2 ta, milliy va xorijiy ilmiy anjuman to‘plamlarida esa 5 ta maqola va tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, yetti paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 154 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertasiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, tadqiqot muammosining o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ish rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti hamda predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va ularning amaliyotga joriy etilishi, ishonchliligi, aprobatsiya natijalarining e’lon qilinishi, shuningdek, ishning hajmi va tuzilishi batafsil yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Axborot olish huquqining nazariy – huquqiy asoslari”** deb nomlanib, unda axborot tushunchasining nazariy – huquqiy jihatlari va zamonaviy tendensiyalar, insonning axborot olish huquqining kafolatlarining rivojlanish bosqichlari, axborot olish huquqining inson huquq va erkinliklari tizimidagi o‘rni ilmiy – nazariy tahlil qilingan.

Birinchi bobda “axborot” tushunchasining mazmun-mohiyati tahlil etilib, turli ilmiy yo‘nalish olimlari, xususan, huquqshunoslar tomonidan berilgan ta’rif va yondashuvlar tizimli tahlil qilingan. Ushbu nazariy qarashlar asosida muallif “axborot” tushunchasiga o‘zining ilmiy asoslangan ta’rif hamda1 taklifini shakllantiradi. Mazkur ta’rifga ko‘ra, *“Axborot – inson tomonidan idrok etiladigan hamda ular o‘rtasida manbalari va taqdim etilish shaklidan qat’i nazar uzatiladigan, shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotdir”*. Axborotga oid ilmiy qarashlarning bir-biridan farq qilishi tufayli, ularning har biriga alohida to‘xtalib, qiyosiy tahlil o‘tkazilgan. Bir qator olimlar A.Saidov, M.Tillabayev, X.Xayitov, A.Amanov, A.Xudoyberdiyev, X.Mamatov, P.Rustamov, F.Makhlupp, A.Berg, Yu.Chernjak hamda D.Chernavskiylarning xulosalari ko‘rib chiqilgan. Tahlil davomida A.Saidov, M.Tillabayev va A.Amanovning axborotning inson huquqlari sohasidagi ahamiyatiga bag‘ishlangan yondashuvlari mazmunan chuqurligi va amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi degan fikrga kelinadi. Xususan, Akademik A.Saidov axborot tushunchasiga inson huquqlari nuqtayi nazaridan yondashgan, unga ko‘ra “axborot - inson huquqlarini buzilishini oldini olishning qudratli vositasidir. Hukumatlarning xalqaro obro‘si muayyan darajada ularning inson huquqlariga amal qilishlariga bog‘liqdir”. Nazariy tahlillar asosida muallif, axborotning inson

huquqlarini ta’minlash va himoya qilishdagi ahamiyatini ifodalaydi. Unga ko‘ra, “*Axborot insonlar o‘rtasidagi muloqot va ijtimoiy munosabatlarning asosi bo‘lib, uning aniqligi va ishonchliligi tenglikka tayangan samarali va ochiq aloqalarni ta’minlaydi. Rivojlanayotgan jamiyatda axborot nafaqat ma’lumot almashinuvining vositasi, balki shaxsning o‘z huquq va erkinliklarini anglash va himoya qilishida muhim manbadir. Shu bois axborotga egalik qilish va undan erkin foydalanish demokratik jamiyatning fundamental huquqlaridan biri sanaladi. Shuning uchun axborotdan erkin foydalanish har bir insonning ajralmas huquqidir”* degan xulosaga kelindi.

Tadqiqot davomida turli nazariy qarashlarni tahlil qilib muallif *“Axborot olish huquqi – har bir insonning davlat, jamoat va boshqa subyektlar manbasidan va taqdim etilish shaklidan qat’i nazar, o‘zining shaxsiy yoki ijtimoiy manfaatlariga daxldor axborotni izlash, talab qilish va olish borasidagi erkinligidir. Ushbu huquqning amalga oshirilishi ochiqlik, javobgarlik hamda ishtirok tamoyillariga asoslangan demokratik jamiyatning poydevorini tashkil etadi”*degan fikrga kelindi.

Ilmiy ishda muallif bugungi kunda insonning axborot olish huquqining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilib, ushbu huquqning shakllanish va rivojlanish jarayonini antik davrdan to hozirgi kungacha bo‘lgan davrlar kesimida batafsil yoritgan. Tadqiqot jarayonida bir qator xorijiy olimlar va axborot sohasi bo‘yicha mutaxassislarning xususan, K.Shenon, R.Xartli, Norberto Bobbio, D.Banisar, T.Mendel. I.Bachilo, K.Mathiesen, R.Kostenko kabi olimlarning inson huquq va erkinliklari tizimida axborot olish huquqining o‘rni va ahamiyati haqidagi fikrlariga alohida e’tibor qaratgan.

Inson huquq va erkinliklarini ta’minlashda ishonchli axborot hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aksincha, noto‘g‘ri yoki yolg‘on ma’lumotlar insonlarning ongli qaror qabul qilishiga to‘sqinlik qilib, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Covid-19 pandemiyasi bunga yorqin misoldir, (JSST)ning ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilning dastlabki uch oyida dunyo bo‘ylab qariyb 6000 kishi koronavirusga oid noto‘g‘ri axborot sabab kasalxonaga yotqizilgan, kamida 800 nafari esa hayotdan ko‘z yumgan[6]. Bu esa ishonchli axborot olish huquqini ta’minlash jamiyat xavfsizligi va inson salomatligini himoya qilishning ajralmas qismi ekanini ko‘rsatadi.

Muallif axborotni inson huquqlari tizimidagi muhim vosita sifatida baholaydi va bunga asos sifatida xalqaro hamda milliy darajadagi normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligini ko‘rsatadi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 1946-yilda qabul qilgan 59(1)-rezolyutsiyada “axborot olish inson huquqlarining asosi bo‘lib, u Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan e’tirof etilgan barcha huquq va erkinliklarning poydevori hisoblanadi” deb belgilangan”[7]. Shuningdek, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida insonning axborot olish huquqi xalqaro huquqiy normalar darajasida tan

[6] World Health Organization. URL: // https://www.who.int/news-room/feature-stories/detail/fighting-misinformation-in-the-time-of-covid-19-one-click-at-a-time?. (Murojaat qilingan sana: 25.07.2025).

[7] BMT Bosh Assambleyasi 59(1) rezolyutsiyasi. 1946. URL: // https://digitallibrary.un.org/record/209774?v=pdf (Murojaat qilingan sana: 22.09.2023)

olingan[8]. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 19-moddasi 2-qismida axborot olish huquqi aniq tarzda kafolatlab qo‘yilgan[9]. Milliy qonunchiligimizda O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 33-modda, 49-modda va 81-moddalarida axborot olish huquqi konstitutsiyaviy darajada kafolatlangan[10].

Tadqiqotchi axborot olish huquqini demokratik jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida baholaydi. Bugungi kunda bu huquq insonlarning turmush tarzi, kundalik hayoti, siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki va xabardorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot olish huquqining huquqiy mustahkamlanishi, davlat boshqaruvida ochiqlikni ta’minlash va axborot jarayonlarini turli sohalarga joriy etish natijasida ishonchli axborot jamiyat hayotida tobora katta o‘rin egallamoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining keng qo‘llanilishi axborot olish jarayonini tezlashtirib, uning samaradorligini oshirmoqda. Ayniqsa, internet asosiy axborot manbaiga aylangan. AQSh hukumati tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlariga ko‘ra, internetning rivojlanish sur’ati boshqa ommaviy axborot vositalaridan ancha yuqori: radioga 50 million auditoriyani shakllantirish uchun 30 yil, televideniyaga 13 yil kerak bo‘lgan bo‘lsa, internet bunday natijaga atigi 4 yilda erishgan. Bu holat internetning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi. Insonlarning axborot olish huquqini o‘rganish jarayoni esa axborot olishning mazmuni va tabiatini tahlil qilish orqali ushbu huquqning bir nechta vazifalarini aniqlash imkonini beradi.Ushbu vazifalar:

- *insonlarning ongli qarorlar qabul qilishi, ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar bilan ta’minlaydi;*

- *davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkonini beradi;*

- *insonlarning o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilishda zarur bo‘lgan huquqiy bilimni oshirishga imkoniyat yaratadi;*

- *demokratik jamiyatni shakllantirish va mustahkamlashda axborot erkinligi, shaffoflik va hisobotlilik tamoyillarini qo‘llab quvvatlaydi;*

- *axborot madaniyatini rivojlantirish tanqidiy fikrlash va axborotdan mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi.*

Ushbu vazifalar axborot olish huquqining roli va ahamiyatini, shuningdek, uning davlat, jamiyat va, qolaversa, inson hayotidagi o‘rnini ma’lum darajada yoritib beradi, degan xulosaga kelinadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Insonning axborot olish huquqini ta’minlash bo‘yicha xalqaro tajriba”** deb nomlanib, unda xalqaro amaliyot hamda xorijiy davlatlar tajribasida insonning axborot olish huquqini tartibga solish masalalari, nazorat qilish mexanizmlari va axborot olish huquqi buzilganligi uchun javobgarlikka oid muammolar keng tarzda tahlil qilingan.

---

[8] Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar to‘plami. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. -179 b.

[9] Fuqaroviy va siyosiy huquqalar to‘g‘risidagi xalqaro pakt // Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar to‘plami. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. -179 b.

[10] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 128 b.

Axborot olish huquqining xalqaro huquq tizimidagi o‘rni, uning demokratik boshqaruv va inson huquqlarini ta’minlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. BMTning shartnomaviy qo‘mitalari va maxsus ma’ruzachilari bu huquqni nafaqat senzura yo‘qligi, balki axborotdan erkin foydalanish imkonini ta’minlash majburiyati sifatida talqin etgan. Shu nuqtayi nazardan, V. Hins va D.Voorhoof axborot olish huquqini “insonlarning hukumat ustidan demokratik nazoratni amalga oshirish vositasi” sifatida izohlaydi.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tajribasida ushbu huquq korrupsiyaga qarshi kurash, sud tizimi shaffofligi va davlat boshqaruvida ochiqlikni ta’minlashning muhim vositasi sifatida qaraladi. XXI asrda u raqamli muhitda yangi bosqichga ko‘tarilib, internet va ochiq ma’lumotlar orqali fuqarolarning siyosiy hamda ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, xalqaro standartlar davlatlardan ochiqlik siyosatini yuritish, shaxsiy hayot daxlsizligi va milliy xavfsizlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlashni talab etadi.

Xorijiy mamlakatlarda insonning axborot olish huquqi to‘g‘risidagi qonunchilikning kelib chiqishi va rivojlanishi, shuningdek, ushbu huquqning xalqaro miqyosda inson huquqlarini ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyatiga doir masalalar tadqiq etilgan. Huquqshunoslar va xalqaro ekspertlar tomonidan xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar hamda xorijiy davlatlarda axborot olish huquqini kafolatlovchi qonunlar tahlil qilinganda, har bir olim o‘z ilmiy yondashuvi va qarashlaridan kelib chiqib, turlicha fikr bildirgan.

Dissertant inson huquqlarining ajralmas bo‘g‘ini sanalgan axborot olish huquqini tadqiq etar ekan ushbu sohadagi bir qator nufuzli olimlarning ilmiy izlanishlari va ilmiy xulosalarini chuqur o‘rgangan. Xususan, D.Maranni, S.Keunen, D.Pozen, A.Roberts, D.Berliner, B.Dosaliyeva, K.Amirjan, N.Mahmedov, R.Mahmudov, T.Elvira, N.Nugmanov, D.Koreenko, T. Mendel, M. Banisar, P.Bayne va S. Kalland kabi olimlarning ilmiy ishlari va qarashlari batafsil tahlil qilingan.

Tadqiqot davomida axborot olish huquqi haqida qarashlari biri-biridan farq qilgan bilan ularning xulosalari o‘xshash, degan to‘xtamga kelindi. Ularning ilmiy izlanishlari axborot olish va uni tarqatishda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Dunyoning 187 ta davlati milliy konstitutsiyalari tahlil qilinganda, ularning 41 tasida insonning axborot olish huquqi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo‘yilganligiga e’tibor qaratilgan[11]. Shu munosabat bilan, tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida axborot olish huquqining fundamental inson huquqi sifatidagi o‘rni va ahamiyatiga huquqiy baho berilgan.

Bugungi kunda 119 ta davlatda axborot olish huquqini kafolatlovchi maxsus qonunlar amal qilmoqda, shundan 90 tasi so‘nggi 19 yil ichida qabul qilingan[12]. Bu holat, T. Mendel va M. Banisar ta’kidlaganidek, “axborot olish huquqining global miqyosda fundamental inson huquqi sifatida tan olinganidan dalolat beradi”. Xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish natijasida aniqlanishicha, ularning

[11] Mariya Riekkinen. Markku Suksi. “Access to Information and documents as a human right”. Institute for Human Rights Abo Akademi University Turku / Abo 2015. 84 page.
[12] Toby Mendel. AFRICA I. N. RIGHT TO INFORMATION IN AFRICA. 2023.

qonunchiligida axborot olish huquqi mustaqil, alohida huquq sifatida mustahkamlanib, uni faqat so‘z erkinligining tarkibiy qismi sifatida emas, balki to‘laqonli huquq sifatida e’tirof etish tendensiyasi ustuvor yo‘nalishga aylangan.

Olimlardan T. Mendel, D. Banisar, S. Kalland va A.Robertslarning fikricha, davlat organlarining shunchaki so‘rovga javob berish majburiyatidan chiqib, axborotni o‘z tashabbusi bilan oshkor etish majburiyati joriy etilishi demokratik boshqaruvning oshkoralik tamoyilini kuchaytiradi. Xorijiy qonunchilikda axborot so‘rovlariga javob berish muddatining qat’iy belgilanishi, rad etish asoslarining huquqiy mezonlarga bog‘lanishi, hamda mustaqil nazorat organlari, axborot komissiyalari yoki komissarlarining faoliyat yuritishi ushbu huquqning kafolatini oshirgan.

Shu bilan birga, ayrim mamlakatlarda axborot olish huquqi hali ham so‘z erkinligining tarkibiy qismi sifatida talqin qilinayotgani, bu esa uning amaliy qo‘llanilishini toraytirayotgani qayd etiladi. D.Banisar va “Access Info Europe” tashkiloti tadqiqotlariga ko‘ra, ayrim davlatlarda javob berish tartibining noaniqligi va nazorat organlarining vakolatlari zaifligi huquqni to‘laqonli amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. “Transparency International” tashkilotining 2024-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, ba’zi davlatlarda axborot komissiyalari qarorlari ijro etilmay qolayotgani kuzatilmoqda[13]. BMTning 2022-yilgi maxsus ma’ruzachisi ham Afrika va Osiyo davlatlarida shikoyat mexanizmlarining murakkabligi sababli insonlar ushbu huquqdan to‘liq foydalana olmasligini ta’kidlagan.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar uchun axborot olish huquqining cheklanishi esa xalqaro tamoyillarga zid holat sifatida baholanadi. A.Robertsning ta’kidlashicha, axborot olish huquqi “fuqarolik bilan emas, insonlik maqomi bilan bog‘liq huquq” bo‘lishi kerak. Shu jihatdan, ayrim mamlakatlarda bu huquqning universalligini ta’minlash mexanizmlarining yetishmasligi xalqaro standartlarga zid tendensiya sifatida baholanadi. Huquqshunos olim D.I. Koreenko fikricha, Axborot olish huquqi butun dunyoda asosiy huquqlaridan biri sifatida tan olingan inson huquqidir. Zamonaviy dunyoda o‘z vaqtida va foydalanish mumkin bo‘lgan ma’lumotlar eng qimmatli manba hisoblanadi, chunki bu insonning o‘zini o‘zi rivojlantirish, ta’lim va muloqot qilish ehtiyojlarini qondirish uchun zarur, shuning uchun ham axborot olish huquqi eng dolzarb inson huquqlaridan biridir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekistonda axborot olish huquqining ta’minlanishi”** deb nomlanib, ushbu bobda insonning axborot olish huquqini amalga oshirishning huquqiy mexanizmi shuningdek, insonning axborot olish huquqidan foydalanish asoslarini takomillashtirishning istiqbollari, muammo va yechimlari kabi masalalar tahliliga bag‘ishlangan. Dissertant ushbu bobda M.Tillabayev, M.Mamasiddiqov, Rebekka Kertis, A.Muhammadiyev, G‘.Mirzayev, N.Davydova, Y.Afina, N.Kolobayeva, A.Minbalayev, Y.Abbosova, E.Talapina, J.Posetti, S.Ireton, M.Dalimunte, V.Kopilov kabi olimlarning izlanishlari va qarashlarini tahlil qilgan.

[13] Instituto Nacional de Transparencia, Acceso a la Información y Protección de Datos Personales. URL: // https://home.inai.org.mx/. (Murojaat qilingan sana: 12.04.2025).

Ushbu bobda dissertant mamlakatimizda ochiqlik siyosati natijasida aholiga yaratilayotgan keng imkoniyatlar hamda shu yo‘nalishda qabul qilingan huquqiy hujjatlarni tahlil qilgan. Xususan, Prezident tashabbusi bilan olib borilayotgan siyosat tufayli O‘zbekistonning xalqaro reytinglarda so‘z va axborot erkinligi bo‘yicha o‘sib borayotgani qayd etilgan. Shu bilan birga, berilgan imkoniyatlarga qaramay amaliyotda hali mavjud kamchiliklar ham ko‘rsatilib, ularni tahlil qilingan.

Insonning axborotni olish huquqlarini amalga oshirishda huquqiy mexanizmlar uch asosiy shaklda namoyon bo‘ladi: normativ-huquqiy, tashkiliy-institutsional va protsessual-amaliy. Normativ-huquqiy mexanizmlar huquqning mazmunini belgilab beradi; institutsional mexanizmlar — axborot beruvchi subyektlar va ularni nazorat qiluvchi tuzilmalarni qamrab oladi; amaliy protseduralar esa — axborotdan foydalanish yo‘llarini, so‘rov berish tartib-taomillarini va murojaatlarga javob berish muddatlarini belgilaydi. Axborotni olish huquqi mazmunan ikki asosiy komponentdan iborat: *birinchidan*, insonlarning o‘z tashabbusi bilan axborot izlash va undan foydalanish erkinligi, *ikkinchidan* esa, davlatning axborotni oshkora taqdim etish va ochiq muhit yaratish bo‘yicha majburiyatlari. Shu nuqtayi nazardan, ushbu huquq subyektiv huquq sifatida, davlat oldidagi ijobiy majburiyatlar bilan o‘zaro bog‘liqdir. Insonning axborotni olish huquqini amalga oshiruvchi institutsional mexanizmlarning axborot tarqatuvchisiga: a) ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, radio, televideniya, internet nashrlari va hokazolar kiradi); b) davlat organlari va tashkilotlari; c) nodavlat notijorat tashkilotlar; d) jismoniy shaxslar (jurnalistlar, blogerlar va boshqa axborot tarqatuvchilar) kiradi.

Tadqiqotchi axborot olishdagi asosiy muammolar global tarmoqda kuzatilmoqda deb hisoblaydi va ularni quyidagicha ko‘rsatadi:

1) amaldagi qonunchilikda axborot olish huquqi belgilangan bo‘lsa-da, ko‘plab davlat organlari va tashkilotlar fuqarolarning axborot so‘rovlariga belgilangan muddatda va to‘liq javob bermaslik holatlari uchrab turadi. Bu esa qonun talablarining amalda buzilishiga olib keladi;

2) qonunchilikda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining oshkoraligini ta’minlash belgilangan bo‘lsa-da, amaliyotda ularning aksariyati o‘z faoliyatiga doir axborotni ommaga muntazam va tizimli ravishda e’lon qilmaydi;

3) jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar mavjudligi sababli turli guruhlar, masalan, nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar, internetga ega bo‘lmagan shaxslar axborot olish huquqidan teng foydalana olmaydi;

4) soxta axborot, manipulyativ kontent, yolg‘on ma’lumotlar axborotga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytirmoqda. Ekstremistik va terroristik faoliyat bilan bog‘liq materiallarni global axborot tarmog‘ida tarqatish, internetda tuhmat va firibgarlik ham axborot olishda muammolarga olib keladi;

5) axborot olish huquqi buzilganda uni sud orqali tiklash jarayoni murakkab va uzoq davom etadi. Yangi tarmoqlar, axborot vositalari, elektron davlat xizmatlari rivojlanib borayotgan bir paytda, ularni qamrab oluvchi huquqiy normalar yetishmaydi.

Dissertant tomonidan tadqiqot doirasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovda 600 dan ortiq respondentlar ishtirokida “insonlarning o‘z huquqlari haqida xabardorlik

darajasi pastligining sababi nima deb o‘ylaysiz?” degan savolga 57,4% ishtirokchilar huquqiy savodxonlik darajasi pastligida deb ta’kidlaganlar. Shuningdek, “Axborot olish bilan bog‘liq muammoga duch kelganmisiz?” degan savolga 73,7% ishtirokchi “ha” degan javobni bergan, “Axborot olishga doir huquqlaringiz buzilganda qayerga murojaat qilasiz?” degan savol eng ko‘p 27,1% respondent Ichki ishlar vazirligiga degan bo‘lsa, “Axborot olishda qanday nizoli holatga duch kelasiz?” degan 48,2% ishtirokchi axborot olish borasida kechikishlar yuzasidan ekanligini ta’kidlaganlar. Bundan tashqari so‘rovnoma ishtirokchilarining 56,2% axborot olishni tartibga soluvchi qonunlarda chalkashliklar mavjud degan javobni berganlar.

Ijtimoiy so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning aksariyati aholining huquqiy savodxonligi pastligi, axborot olish huquqini kafolatlovchi qonunlardan xabardor emasligi hamda ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarda muayyan chalkashliklar mavjudligini ta’kidlagan. Shu sababli izlanuvchi O‘zbekiston ta’lim tizimida “Axborot huquqi” fanini joriy etishni taklif etadi. Axborot huquqi fani bugungi kunda MDH davlatlari Rossiya, Belarussiya, Qirg‘iziston va Qozog‘istonda alohida yo‘nalish sifatida o‘qitilib, ilmiy tadqiqotlar ham olib borilmoqda. Masalan, Rossiyada (12.00.14-ma’muriy, moliya va axborot huquqi), Belarusiyada esa (12.00.13 - Axborot huquqi) ixtisosligi bo‘yicha dissertatsiyalar himoya qilinmoqda. Yevropa va Amerika universitetlarida esa “Information law”, “Internet law”, “Media law” va “Data Protection law” nomlari ostida mustaqil kurslar mavjud.

Axborot olish huquqini tartibga soluvchi 10 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat mavjud bo‘lib, ularni yagona Axborot kodeksiga birlashtirish zarur. Bunday kodeksning qabul qilinishi O‘zbekistonning ochiq jamiyat, ochiq hukumat va raqamli taraqqiyot tamoyillariga sodiqligini namoyon etadi. Natijada fuqarolarning axborotga bo‘lgan ishonchi ortadi, davlat boshqaruvida ishtiroki kengayadi hamda inson huquqlari va qonun ustuvorligi yanada mustahkamlanadi.

O‘zbekistonda axborot olish huquqining samarali amalga oshirilishi, shuningdek, sudgacha bo‘lgan muqobil himoya va mediatsiya mexanizmlarini joriy etish dolzarbdir. Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, axborotga bo‘lgan huquqni mustaqil ravishda nazorat qiluvchi “Axborot komissari” instituti oshkoralikni ta’minlashda samarali mexanizm hisoblanadi.

O‘zbekistonda ushbu institutni bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq. Dastlab uni Ombudsman tarkibida maxsus bo‘lim sifatida shakllantirib, keyinchalik mustaqil Axborot komissari institutiga aylantirish tavsiya etiladi. Bu yondashuv aholining huquqiy madaniyatini oshirish, davlat organlarining ochiqligini kuchaytirish va sudgacha axborot olish bilan bog‘liq nizolarni hal etish imkoniyatini beradi.

Birinchi bosqich, taxminan bir yoki ikki yil davomida Ombudsman huzurida Axborot huquqlari bo‘yicha bo‘lim tashkil etilib, mustaqil veb-sayt yaratiladi, malakali xodimlar jalb qilinadi, shikoyatlarni ko‘rib chiqish va monitoring tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Yillik hisobotlarda axborot huquqlari alohida bo‘limda yoritiladi, aholining xabardorligini oshirish va davlat organlari amaliyotini tahlil qilish yo‘lga qo‘yiladi.

Ikkinchi bosqich, uch yoki besh yil to‘plangan tajriba asosida mustaqil Axborot komissari tashkil etiladi. Buning uchun amaldagi qonunchilikka yoki yangi Axborot kodeksiga komissarning maqomi, vakolatlari va mustaqilligiga oid bob kiritiladi.

